

MENING SOHAMDAGI IZ QOLDIRGAN ALLOMA*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Ona tili va adabiyoti :rus tili yo'nalishi**1-bosqich talabalari**Asadulloyeva Madina Bahromzoda**asadullayevamadina0@gmail.com**Shodmonova Gulyuz Nuriddinova**shodmonovagulyuz7@gmail.com*

Annotatsiya Ushbu maqolada muayyan sohada chuqur iz qoldirgan allomaning hayoti, ilmiy faoliyati va jamiyat rivojiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Unda allomaning ilmiy merosi, kashfiyotlari hamda ularning bugungi kundagi ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, uning ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi yosh avlod uchun ibrat maktabi sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: alloma, ilm-fan, meros, kashfiyot, rivojlanish, ilmiy faoliyat, jamiyat, ta'lim, innovatsiya, tarixiy ahamiyat

Аннотация

В данной статье анализируются жизнь, научная деятельность и вклад в развитие общества выдающегося ученого, оставившего глубокий след в определенной сфере. В работе освещаются научное наследие, открытия ученого и их значение в современном мире. Кроме того, вклад мыслителя в развитие науки оценивается как школа наставничества и пример для молодого поколения

Ключивые слова: ученый, наука, наследие, открытие, развитие, научная деятельность, общество, образование, инновации, историческое значение.

Abu Nasr Farobiy (873-950) o'rta asr sharqining mashhur mutafakkiri, falakiyot, tabobat, musiqa, tilshunoslik, falsafa sohalarida ijod qilgan qadimgi yunon falsafasining Sharqdagi eng yirik davomchisi va targ'ibotchisidir. U Sirdaryo bo'yidagi O'tror (Forob) shahrida tug'ilgan. U Yunon faylasuflarining asarlarini mutolaa qilish, turli tillarni o'rganish bilan shug'ullandi. U o'z davrining faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olimi sifatida shuhrat qozondi. U "Aql haqidagi risola" "Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak", "Falsafa manbalari", "Masalalar manbalari" kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi

Farobiy yosh avlodni kamolga yetkazishda u yashayotgan jamiyatdagi muhit, hayotiy tajriba, ta'lim-tarbiyaning ta'siri va bu ta'sir natijasida ular o'zlaridagi ijobiy yoki salbiy xislat-fazilatlarni namoyon qilishlarini aytadi. "Insonlar tug'ilganda kamolotli bo'lib tug'ilmaydi, ularni orasida aslida farq ham bo'lmaydi, ularning xulqi, faoliyati, hayoti o'xshash bo'ladi, keyinchalik esa o'zgaradi, ya'ni ijtimoiylashuv

jarayonida jamiyatda odamlar ming yillardan beri amal qilib kelayotgan qadriyatlarni va me'yorlarni qabul qiladilar. Farobiy ta'lim tarbiyaga bag'ishlagan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi.

Forobiy o'zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli soHalarida asarlar yaratgan. Demak, Forobiy inson baht – saodatga erishuvi uchun ularni bahtli – saodatli qila oladigan jamoa raHbari bo'lishi kerak deydi. U fozil shaHarni boshqaradigan Hokim tabiatdan: 1 – sog' – salomat bo'lib, o'z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmaligi; 2 – tabiati nozik, farosatli; 3 – hotirasi mustaHkam, 4 – zeHni o'tkir, 5 – o'z fikrini tushuntira oladigan notiq, 6 – bilim-ma'rifatga Havasli, 7 – taom eyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o'zini tiya oladiga bo'lishi (qimor yoki boshqa o'yinlardan) zavq, Huzur olishdan uzoq bo'lishi, 8 – Haq va Haqiqatni, odil va Haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va elg'onchilarni yomon ko'radigan, 9 – o'z qadrini biluvchi va oriyatli bo'lishi, 10 – mol dunyo ketidan quvmaydigan, 11 – adolatparvar 12

– qatiyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi muHimligini qayd etadi. Forobiy bu fazilatlarni Har bir etuk insonda ko'rishni istaydi.

Forobiy ta'lim tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim – tarbiyaning muHumliligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim – tarbiya usullari va uslubi Haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shaHri», «Baht saodatga erishuv to'g'risida», «Ihso – al – ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asrlarida ijtimoiy – tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Forobiy o'z ishlarida ta'lim – tarbiyani uzviy birlikda olib borish Haqida ta'lim bergan bo'lsa Ham, ammo Har birining insonni kamolga etkazishda o'z o'rni va hususiyati bor ekanligini aloHida ta'kidlaydi.

Forobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. Ta'lim – degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – nazariy fazilatni, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan hulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim. Forobiy nazarida, jamiyatning mustahkamligi va barqarorligi uch asosiy tamoyilga tayanishi kerak:

1. Axloqiy ustuvorlik – jamiyatdagi barcha qatlamlar o'z faoliyatida halollik, adolat va fidoyilikni asosiy mezon sifatida qabul qilishi lozim.

2. Funktsional mutanosiblik – har bir qatlam o'ziga xos funksiyani bajaradi va bu rollar o'zaro to'ldiruvchi va bir-biriga tayanuvchi bo'lishi kerak.

3. G'oyaviy birlik – barcha qatlamlar yagona umumiy maqsad — jamiyatni haqiqiy saodat sari yo'naltirishga xizmat qilishi zarur.

Bu integratsiyalashgan yondashuv Forobiyning ideal jamiyati faqat siyosiy tuzilma emas, balki axloqiy-sivilizatsion loyiha ekanini ko'rsatadi.

Farobiy dunyoqarashida ijtimoiysiyosiy va axloqiy fikrlar ham muhim o'rinni egallaydi Farobiy Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari faylasuflari orasida birinchi bo'lib, jamiyatning kelib chiqishi, uning maqsad va vazifalari haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. O'rta asr sharoitida jamiyat tabiiy ravishda kelib chiqqanligini, inson faqat boshqalar yordamida hayot qiyinchiliklariga qarshi kurasha olishi mumkinligini asoslab berdi. „Har bir inson, — deydi Farobiy, — o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun insonlar ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi“. Shaharlar, uning fikricha, insonlarning jamoa bo'lib uyushishining oliy shakli bo'lib, unda insoniy barkamol bo'lib yetishishi uchun zaruriy sharoitlar bo'ladi. Farobiy insonlar tabiiy ehtiyoj natijasida o'zaro birlashib, jamoani tashkil qilganligini alohida ta'kidlaydi.

Farobiy ulug' gumanist, insonparvar faylasuf sifatida inson qadrdimmatini kamsituvchi va o'zga mamlakatlarni bosib olishga asoslangan jamiyatga qarshi chiqadi.

Farobiy ilgari surgan fikrlar XVI-XX asrlarda ham musulmon mamlakatlari olimlari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganildi. Mutafakkir qoldirgan meros faqat Sharq mamlakatlarida emas, balki Yevropada ham tarqaldi va ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotida sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Farobiyning ilmiy merosini o'rganish XX asrning 1yarmida boshlangan. Yevropa olimlari Karra de Vo, R. Xorten, M. Alonsa, D. M. Donlap, A. Shtekl, T. U. Buur, B. M. Shtrenshneyder, G. Ley, R. Xammond, R. de Erlanjer, I. Goldsiyer, Farobiy Deteritsi, G. Farmer, N. Rishar va boshqa Farobiyning ilmiy merosini o'rganishga o'z hissalarini qo'shdilar

Farobiy ta'lim – tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul Ham pirovardida insonni Har tomonlama kamolga etkazish maqsadini ko'zlaydi.

Hulosa qilib aytganda Farobiy pedagogik ta'limotining asosida komil insonni shakllantirish, insonni o'z mo'hiyati bilan ijtimoiy, ya'ni faqat jamiyatda, o'zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi.

Insonning kamolga etishida Ham aqli, Ham ahloqiy tarbiyaning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Farobiy tavsiya etgan ta'lim – tarbiya usullari Hozirgi davrda Ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi bilan diqqatga sazovor bo'lgan.

Abu Nasr Farobiy insoniyat tafakkuri tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk allomalardan biridir. Uning ilm-fan, ayniqsa falsafa, mantiq, siyosatshunoslik va

musiqa sohalariga qo'shgan hissasi nafaqat Sharq, balki G'arb uyg'onish davri taraqqiyotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Farobiy o'z asarlarida inson aqliy kamoloti, jamiyatning mukammal tuzilishi va baxt-saodatga erishish yo'llarini chuqur tahlil qilib, ilmni eng oliy qadriyat sifatida ulug'ladi.

Allomaning qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. U ilgari surgan "fozil jamiyat" g'oyasi, ilm va axloq uyg'unligi haqidagi fikrlari zamonaviy taraqqiyot uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, Farobiyning ilmga intilish, fikrlash va tahlil qilish madaniyatini rivojlantirishga da'vati bugungi yosh avlod uchun ham ibrat maktabidir.

Shu bois, Farobiy merosi nafaqat tarixiy qadriyat, balki bugungi kun va kelajak taraqqiyoti uchun ham muhim manba hisoblanadi. Uni chuqur o'rganish va targ'ib qilish milliy va umuminsoniy madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan.

Adabiyotlar

1. Risolalar, T., 1975;
2. Filosofskiye traktati, AlmaAta, 1972;
3. Fozil odamlar shahri, T., 1993.
4. Al Farabi. Nauchnoye naslediye. Sbornik, M., 1975;
5. Alikulov X. A., Eticheskiye vozzreniya mislitley Sredney Azii i Xorasana, T., 1992;
6. Grigoryan S. N., Srednevekovaya filosofiya narodov Blijnego i Srednego Vostoka, M., 1966;
7. Iz filosofskogo naslediya narodov Blijnego i Srednego Vostoka, T., 1972;
8. Jumaboyev Y ., O'zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan, T., 1997;
9. Ma'naviyat yulduzlari, T., 1999.
10. Mo'minov I. M., O'zbekistondagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar. T., 1999;
11. O'zbekistonda ijtimoiyfalsafiy fikrlar tarixidan, T., 1995;
12. Sotsialnoutopicheskiye idei v Sredney Azii, T., 1983;
13. Xayrullayev M. M., Abu Nasr Forobiy, T., 1966;
14. Xayrullayev M. M., Farabi. Epoxa i ucheniye, T., 1975;
15. Xayrullayev M. M., Forobiy va uning falsafiy risolalari, T., 1963;
16. Xayrullayev M. M., Mirovozreniye Farabi i yego znachenkiye v istorii filosofii, T., 1967;
17. Xayrullayev M. M., O'rta Osiyoda ilk uygonish davri madaniyati, T., 1994;
18. Xayrullayev M. M., Uyg'onish davri va Shark mutafakkiri, T., 1971;